

MASOFAVIY TA'LIM - SIRTQI O'QISHNING YANGI SHAKLI

Pozilov Mamajon Narzikulovich
Jizzax politexnika instituti professori

Karimova Feruza Sattarovna
Jizzax politexnika instituti katta o'qituvchisi
Jizzax politexnika instituti, O'zbekiston, Jizzax shahar

Annotatsiya: Maqolada masofaviy va sirtqi ta'limda o'quv jarayonini tashkil qilinishi tahlil qilingan va ularni bir-biriga mutanosiblik tomonlari aniqlangan. Sirtqi va masofaviy ta'lim bir-biriga yaqindir, ularning bir-biriga o'xshash tomonlari ko'pdir. Shuning uchun ham masofaviy ta'lim uslubi bu sirtqi o'qishning yangi shaklidir. U eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va shakllarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim sohasidir.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, masofaviy ta'lim, sirtqi ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv audio va video konferensiyalar, masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minot, o'quv kontenti, yakuniy hazorat.

ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ - НОВАЯ ФОРМА ЭКСТЕРНАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

Позиллов Мамажон Нарзикулович
Профессор Джизакского политехнического института
Каримова Феруза Саттаровна

Старший преподаватель Джизакского политехнического института
Джизакский политехнический институт, Узбекистан, Джизак

Аннотация: В статье анализируется организация образовательного процесса в дистанционной и заочной формах обучения, выявляются аспекты их взаимосвязи друг с другом. Заочное и дистанционное образование близки друг другу и имеют много общего. Вот почему дистанционное обучение — это новая форма заочного обучения. Это образовательная сфера, основанная на информационных и телекоммуникационных технологиях, таких как дистанционное и очное образование, которая включает в себя лучшие традиционные и инновационные методы, средства и формы обучения.

Ключевые слова: высшее образование, дистанционное обучение, заочное обучение, информационно-коммуникационные технологии,

интерактивные аудио- и видеоконференции, программное обеспечение для управления дистанционным обучением, образовательный контент, итоговый экзамен.

DISTANCE LEARNING - A NEW FORM OF EXTERNAL LEARNING

Pozilov Mamajon Narzikulovich
Professor of the Jizzakh Polytechnic Institute
Karimova Feruza Sattarovna
Senior Lecturer at Jizzakh Polytechnic Institute
Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan, Djizak

Abstract: The article analyzes the organization of the educational process in distance and correspondence forms of education, identifies aspects of their relationship with each other. Correspondence and distance education are close to each other and have much in common. That is why distance learning is a new form of correspondence education. It is an educational field based on information and telecommunication technologies, such as distance and face-to-face education, which includes the best traditional and innovative methods, means and forms of teaching.

Key words: higher education, distance learning, correspondence education, information and communication technologies, interactive audio and video conferencing, distance learning management software, educational content, final exam.

Oliy ta'lim tizimida masofadan o'qitish uslubi shakllari qo'llanilmoqda. Masofaviy ta'limning maqsadi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabani turar joyidan qat'i nazar, unga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish, talabalarning qiziqishlari, iqtidori va ehtiyojlariga muvofiq kasbiy salohiyatini rivojlantirishdan iborat, lekin bunday ta'rif sirtqi ta'limga ham berilishi mumkin[1-3]. Shundan kelib chiqib ushbu maqolada masofaviy va sirtqi ta'limda o'quv jarayonini tashkil qilinishi tahlil qilingan va ularni bir-biriga mutanosiblik tomonlari aniqlangan.

Sirtqi va masofaviy ta'lim uchun talabalarni ta'lim tashkilotiga qabul qilish, ularning o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish boshqa ta'lim shakllari uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bir xil shaklda amalga oshirilmoqda. Sirtqi va masofaviy ta'lim shakli to'lov-kontrakt asosida amalga oshirilmoqda, lekin ikkala ta'lim shaklida to'lov-kontrakt mablag'i miqdori bir-biridan farq qiladi, masofaviy ta'limda talaba kamroq mablag' sarflaydi.

Iqtisodiy jihatdan maqbul variantlarni qidirayotgan talabalar uchun masofaviy ta'lim eng to'g'ri yo'l, lekin onlayn ta'limda talabaning chalg'ish ehtimoli yuqori bo'lganligi sababli ko'p vaqt va mablag' sarflashi mumkin.

Sirtqi va masofaviy ta'limda ta'lim oluvchilar sonining ortirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Masofaviy ta'lim shakli joriy etish mumkin bo'lmagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi, lekin sirtqi o'qitishda barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlanadi.

Sirtqi va masofaviy ta'limni afzalliklari va kamchiliklari bir-biriga solishtirilganda shu narsa aniqlandiki, onlayn bilim olishda Internet provayderlarining sekin ishlashi yoki tez-tez aloqa uzilib qolishi ehtimoli mavjuddir. Shahardan uzoqlashgan sari bu kamchiliklar ko'chayib boradi. Bu vaziyatda talabaning ta'lim olishga bo'lgan intilishi va qiziqishi so'nadi. Sirtqi ta'limda esa Internet bilan bog'liq muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish mumkin.

Sirtqi ta'limning eng muhim tomoni shundaki, semestr davomida o'qitiladigan fanlar bo'yisha qisqacha(ishchi o'quv rejasida belgilangan hajmda) ma'ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlar guruh bo'lib o'tiladi. Guruhda ba'zi talabalar tezroq, ayrimlari esa sekin o'zlashtiradilar. Bu jihatdan masofaviy ta'lim olish usuli samaraliroq, chunki talaba fanni masofaviy ta'limni maxsus platforma yordamida mustaqil o'zlashtiradi. Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalarini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, bu yerda interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarini jo'natish va qabul qilishga yordam beradi. Oldindan tasмага muhrlangan videomaruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, maksimal aloqa onlayn o'qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Sirtqi ta'limda esa bunday imkoniyatlar cheklangan.

Sirtqi va masofaviy ta'limda Siz o'qish bilan bir qatorda ish bilan ham shug'ullanishingiz mumkin.

Masofaviy ta'lim bo'yicha o'qish davomiyligi tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha kunduzgi ta'lim shakli uchun belgilangan o'qish davomiyligi muddatidan kam bo'lishi mumkin emasligi belgilangan. Sirtqi ta'limda esa o'qish muddati kamida 5 yil qilib belgilangan. Bundan chiqdi, talabalar masofaviy ta'limda sirtqi ta'limga nisbatan kamroq o'qiydi, shuning uchun xarajatlar ham bo'ladi.

Binobarin, masofaviy ta'lim bo'yicha o'quv jarayoni davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida ishlab chiqilgan o'quv reja va o'quv dasturlar asosida amalga oshiriladi. Sirtqi ta'limda esa o'quv jarayoni ta'lim sohalarining davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim yo'nalishlari malaka talablari asosida tayyorlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan kunduzgi ta'lim uchun tasdiqlangan o'quv rejasi va fan dasturlari asosida tashkil etiladi.

Masofaviy ta'limda bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativlari 1:50 nisbatda belgilangan. Sirtqi ta'limda esa o'qish bo'yicha oliy ta'lim yo'nalishlariga qarab bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbati 1:20 etib belgilangan. Bundan ko'rinib turibdiki, masofaviy ta'lim uchun kam professor-o'qituvchilar jalb etiladi, chunki masofaviy o'qitish shaklida o'quv jarayonini tashkil etishda o'quv kontenti — o'quv jarayonida talabalarning foydalanishi uchun mo'ljallangan, masofaviy ta'limni boshqarish axborot tizimiga joylashtirilgan o'quv metodik materiallar (o'quv rejalari, o'quv dasturlari, ma'ruza matnlari, videodarslar, taqdimotlar, topshiriqlar, imtihon materiallari, o'quv adabiyotlari) yaratiladi. Ta'lim sohaları bloklari va shakllari bo'yicha bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining me'yorlari qonunchilik hujjatlari asosida belgilanadi.

Shunday qilib, sirtqi ta'limda masofadan turib o'qitish talabalarning asosiy ish joyidan ajralmagan holda o'quv rejasidagi barcha fan dasturlarida belgilangan bilimlarni mustaqil masofadan turib o'zlashtirish asosida amalga oshirilishi mumkinligini hisobga olsak, sirtqi va masofaviy ta'lim bir-biriga yaqindir, ularning bir-biriga o'xshash tomonlari ko'pdir. Shuning uchun ham masofaviy ta'lim uslubi bu sirtqi o'qishning yangi shakli va mustaqil o'qishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 930-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom".

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son [qarori bilan tadiqlangan](#) “Oliy ta‘lim tashkilotlarida masofaviy ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom”.
3. Shaymatov J.N. Masofaviy ta‘lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari//Academic research in educational sciences, Volume 2, Issue 2, 2021. pp. 284.